<b>Soibov Nozimbek Faxridin o'g'li</b>	
Применение методов PMBOK в управлении рисками проектов .....	1070
<b>Гулираъно Носирова Абдулазиз қизи</b>	
Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda aholi farovonligining o'rni va ahamiyati .....	1073
<b>Bobaev Isroiljon Abdinabievich</b>	
Вопросы инновационных инвестиций в контексте международной экономической интеграции .....	1078
<b>Шарипов Бахтиёр Михлибаевич</b>	
Yashil iqtisodiyotga o'tishning nazariy va amaliy jihatlari hamda tendensiyalari.....	1083
<b>Samiyev Abdurashid Qaxramonovich, Shermuxammedov Begzodjon Usmonovich</b>	
Tijorat banklarida muammoli kreditlar samaradorligini ta'minlash yo'llari.....	1087
<b>Nazarov Qilich Xolmuradovich</b>	
Improving the organizational and economic mechanisms for the development of tourism in the republic of karakalpakstan .....	1092
<b>Tleumuratov Baxadir Genjemuratovich</b>	
O'zbekistonda tumanlar barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash yo'llari (Surxondaryo viloyati misolida).....	1097
<b>Qosimova Nodira Saidovna</b>	
Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishning asosi sifatida innovatsiyalar.....	1102
<b>Azizova Maliha Farrux qizi</b>	



Влияние инвестиций на инновационное развитие и повышение конкурентоспособности экономики узбекистана .....	1106
<b>Максудова Шахзода</b>	
Возможности снижения затрат на логистику за счет цифровых технологий .....	1112
<b>Олимова Бахора Шухратовна</b>	
Yashil texnologiyalar va ularning iqtisodiy tizimga ta'siri.....	1116
<b>Sultonov Omon Juma o'g'li</b>	
Iqtisodiy o'sishning makroiqtisodiy faktorlari va ularning ta'siri .....	1121
<b>Zuvaydullaev Nematullo Oybek o'g'li</b>	
Роль управления производством в условиях модернизации экономики.....	1125
<b>Гулов Мухтор Очилович</b>	
Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida sun'iy intellekt texnologiyalarining o'rni va ahamiyati .....	1129
<b>To'rayev Shavkat Shuxratovich</b>	
Роль цифрового маркетинга в продвижении туристических направлений.....	1136
<b>Муродова Наргиза Уткировна</b>	
Развитие финансовых рынков в странах снг: проблемы и перспективы.....	1140
<b>Рузиев Зафар Икрамович, Каримов Ислон Ураз угли</b>	
Современные инструменты продвижения бренда в условиях цифровой экономики.....	1145
<b>Темирова Феруза Сагдуллаевна</b>	
“Raqamli asrda axborot xavfsizligi: it texnologiyalar bilan xavfsizlikni ta'minlash yo'llari” .....	1149
<b>Sherzod Rajabov</b>	
Государственное регулирование инвестиционной деятельности: проблемы и направления совершенствования.....	1152
<b>Шухрат Турсунов, Икромов Хасан Зафарович</b>	
Economic incentives and barriers to sustainable transition in agribusiness: a comparative study of organic and conventional farming systems .....	1157
<b>Mubina Toirova</b>	
Цифровая трансформация банковской системы узбекистана: анализ внедрения fintech-решений в государственных банках .....	1162
<b>Абдурахимова Дилора Каримовна</b>	
Ta'lim muassasalaridagi ba'zi jihatlar .....	1167
<b>A'zam Qutbiddin A'zam-zoda</b>	
Klasterlar hisob siyosatida boshqaruv hisobining metodologik asoslari.....	1173
<b>Toshpo'latov Azizbek Shermuxamadovich</b>	
Egri soliqlarning mohiyati, genezisi va rivojlanish tendensiyalariga oid nazariy munozaralar xususida .....	1179
<b>Shodiyev Olimjon Abduraxmonovich</b>	
Ekologik mehmonhona faoliyatini rejalashtirish maqsadlari va vazifalari .....	1186
<b>Abidova Dilfuza Igamberdievna</b>	
Investitsiya loyihalarining iqtisodiy va moliyaviy samaradorligini oshirish istiqbollari.....	1200
<b>Jo'rabekova Xumora Muzaffar qizi, Saidov Rasul Boltabayevich</b>	
O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlarini moliyalashtirish manbalarining tahlili.....	1204
<b>Aliyev Arslon Salom o'g'li</b>	
O'zbekistonda turizm sohasining iqtisodiy ko'rsatkichlarini statistik tahlil qilish.....	1213
<b>Jumanova Zilola Tuychiyevna</b>	
Xorijiy davlatlarda boylik solig'i va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.....	1219
<b>Ruziyev G'anisher Usarovich</b>	
Yer fondi va undan samarali foydalanishning nazariy asoslari (Samarqand viloyati misolida).....	1225
<b>Xoshimova Sevara Baxromovna</b>	
Iqtisodiy-ekologik tizimlarni boshqarishga ta'sir etuvchi omillarning ilmiy asoslari .....	1229
<b>Kuldoshev Asliddin Tursunovich</b>	
Влияние финтех-услуг на финансовую инклюзию в сельских регионах узбекистана .....	1236
<b>Абдурахимова Дилора Каримовна</b>	
Surxondaryo viloyati sanoat sohasining asosiy ko'rsatkichlari tahlili.....	1240
<b>Kuvanchiyeva Mehriniso Davlyatgeldi qizi</b>	
A critical evaluation of strategic management's role in promoting sustainable development in Uzbekistan .....	1245
<b>Ismatova Mahliyo</b>	



O'zbekistonda turizm xizmatlari eksportini oshirishda zamonaviy infratuzilma va texnologiyalarning integratsiyasi.....	1251
<b>Akmal Bakhromov</b>	
Trends and reforms of corporate governance in state-owned enterprises.....	1257
<b>F.Djalilov</b>	
Переоценка долгосрочных активов в нефтегазовой промышленности и определение финансового результата от переоценки.....	1269
<b>Махкамова Саида Гайратова</b>	
Oziq-ovqat mahsulotlari korxonalarini integratsiyalashuv jarayonlarini boshqarish samaradorligini oshirish.....	1275
<b>Xojiev Ibroxim Ikramovich</b>	
Sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ta'minlashning muhim shartlari.....	1280
<b>Allanazarova B.K.</b>	
P2P lending and crowdfunding as alternative sources of financing for small business in Uzbekistan.....	1286
<b>Abdurakhimova Dilara Karimovna</b>	
O'zbekistonda soliq nazoratining huquqiy va tashkiliy asoslarini takomillashtirish yo'llari.....	1290
<b>Kuziyeva Nargiza Ramazanovna, Oymatova Gulnur Mirjamolovna</b>	
Applications of hyperbolic geometry in physics and biology.....	1295
<b>Khaknazarova Khurshidabonu Kenjaevna, Otakulova Rukhshona Akram kizi</b>	
O'zbekiston temir yo'llari tizimining transformatsiyasi: modernizatsiya, raqamlashtirish va qayta tuzilish yo'nalishlari.....	1301
<b>Nasrullayev Nurbek Baxtiyarovich</b>	
The role of tourist product diversification in sustainable tourism development.....	1305
<b>Raxmonov Shuxrat Shavkatovich, Alimova Mashhura Toirxonovna</b>	
Temiryo'l transporti turi tavsifi.....	1310
<b>Shodmonbekova Nodira Kamoljon qizi</b>	
Kiberxavfsizlik: it infratuzilmasini himoya qilishning zamonaviy usullari.....	1321
<b>D. Sh. Usmanbayev</b>	
Mahalliy budjetlar daromad bazasini tahlili.....	1325
<b>Qurbonov Nuriddin Ro'ziqulovich</b>	
Развитие цифровых финансовых услуги в банковской системе Республики Узбекистан.....	1333
<b>Абдурахманова Матлуба Махамдаминовна</b>	
Avariya rejimlarida kichik yuklamali elektr ta'minoti tizimlarining kabel izolyatsiyasi monitoringini avtomatlashtirishning zamonaviy yondashuvlari.....	1339
<b>Mirzoyev Narzulla Nuriddinovich, Mamatqulov Toyir Chorshanbiyevich</b>	
Analysis of increasing the speed of information exchange between the control interface and execution mechanisms in emergency mode in intelligent systems.....	1346
<b>Azizbek Yusupbekov Nodirbekovich, Husniddin Esonov Mamarasul o'g'lu Assistant</b>	
Sa'noat korxonalari va mexatron robotlarni optimal avtomatlashtirish va boshqarishda sun'iy intellektning ahamiyati.....	1351
<b>Karabayev Ibragim Turdiyevich, Esonov Husniddin Mamarasul o'g'li, Abdullayeva Saodat Mengbayevna, Mamatqulov Toir Chorshanbiyevich</b>	
Korxonaning moliyaviy holatini baholashda zamonaviy tahlil uslublarining qo'llanilishi.....	1355
<b>Usmanova Nasiba Akbarjonovna, Suleymanova Asel Armanovna</b>	
Xizmat ko'satish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalarning ahamiyati.....	1360
<b>Mirzayeva Shirin Nodirovna</b>	
Rekreatsiya turizmi va sog'lomlashtirish xizmatlari integratsiyasi.....	1365
<b>Shaymanova Nigora Yusupovna</b>	
Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirishda ba'zi iqtisodiy yondashuvlarning nazariy jihatlarini.....	1369
<b>Iskandarova D.B.</b>	
Yashil (eko) investitsiyalarni tijorat banklari orqali moliyalashtirish.....	1373
<b>Kamilova Iroda Xusniddinovna</b>	
Improvement of inventory accounting audit based on international standards.....	1378
<b>Ovlayev Suhrob Temur o'g'li, Yo'ichiyev Oybek Ulug'bek o'g'li, Normo'minova Dilorom Umar qizi, Avlayeva Oybarchin Olim qizi</b>	



Artificial intelligence systems for assessing creditworthiness .....	1382
<b>Mardonova Durdona Yaxshiboy qizi</b>	
B2B bozorini rivojlantirishda raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish .....	1387
<b>Samadov Askarjon Nishonovich</b>	
Tech-driven growth and the economy of the future: brics-t in the society 5.0 paradigm .....	1395
<b>Kaldibayev Nurlan Alimjanovich, Sagdullayeva Gulnora Botirovna, Durmanov, Akmal Shaimardanovich</b>	
O'zbekistonda tabiiy resuslardan olinadigan rentaning yaimdagi ulushiga tanlab olingan o'zgaruvchilar ta'siri tahlili .....	1404
<b>Tursunov Husnidin, Ibragimov Hasan</b>	
O'zbekistonda fond bozorini tartibga solish .....	1412
<b>Sultonov Sherali Nuraliyevich</b>	
Public perception of the feasibility of introducing islamic banking in Uzbekistan: a consumer perspective .....	1418
<b>Dr. Shamirova Surayo Kabildjanovna</b>	
Directions for implementing the innovative digital technologies in tourism .....	1425
<b>Norchaev Asatullo Norbutaevich</b>	
Возможности совершенствования практики финансирования инвестиционных проектов .....	1430
<b>Шомуродов Равшан Турсункулович, Хакимов Хафизбек Хамза угли</b>	
O'zbekistonda pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatishning transport-logistika jarayonini mintaqaviy darajada rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqish .....	1436
<b>Palvanbayev Umidbek O'ktam o'g'li</b>	
Aksiyalar qiymatini baholashning nazariy asoslari .....	1440
<b>Botirxo'ja Aziza Faxmuddin qizi</b>	
Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishning rivojlanayotgan davlatlar amaliyoti tahlili .....	1444
<b>Raimjanova Madina Asrarovna, Zokirova Feruza Farxod qizi</b>	
Yashil loyihalarni davlat xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish .....	1449
<b>Zokirova Feruza Farxod qizi</b>	
Факторы и риски, влияющие на оценку стоимости акции .....	1453
<b>Батирхужа Азиза Фахмуддин кизи</b>	
Финансовые риски в эпоху цифровой экономики: новые вызовы и способы управления .....	1458
<b>Нуруллина Камила Рустамовна</b>	
Tijorat banklarining yangi bank xizmatlarini iqtisodiy samaradorligi .....	1463
<b>Rahmatov Temur Sotiboldiyevich</b>	
Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida ekologik innovatsiyalarning roli va amalga oshiruv mexanizmlari .....	1472
<b>Ulichkina Lyudmila Ivanovna</b>	
Эволюция профессиональных стандартов в республике узбекистан: от формирования к внедрению в сфере туризма .....	1478
<b>Гольшева Елена Вячеславовна, Ивонина Наталья Викторовна</b>	
Aligning uzbekistan's education reform with global best practices: the university of missouri as a model for systemic transformation .....	1485
<b>Azamat Sulaymonov, Laylo Yakhshiboyeva</b>	
O'zbekiston tijorat banklarining investision faolligini ta'minlash masalalari .....	1489
<b>Axmedov Shoymurod Azamat o'g'li</b>	
Kichik biznes subyektlarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalasi .....	1493
<b>Q.O.Tursunboyev</b>	
Adoption of green economy mechanisms in the process of diversification of construction enterprises .....	1500
<b>Yembergenova Aynur Aidosbayevna</b>	
Nomoddiy aktivlar hisobini yuritish va audit jarayonlarini takomillashtirish yo'llari .....	1506
<b>Rozmatova Umida Yuldashvna</b>	
Raqamli moliya va uni sohaga joriy etish: innovatsion salohiyat .....	1512
<b>Babadjanov Abdirashid Musayevich</b>	
Влияние корпоративной культуры на инвестиционную стратегию промышленных предприятий .....	1527
<b>Едгоров Сардорбек Самадович</b>	



Jismoniy shaxslar kreditlarining bank portfeli sifatiga ta'siri: tahliliy yondashuv.....	1533
<b>Sabirova Lobar Baxromovna</b>	
Xo'jaligini soliqqa tortish mexanizmini samaradorligini oshirish istiqbollari.....	1539
<b>Salimov Sherzod Baxtiyorovich</b>	
Methods of improving customs management in transforming the customs bodies into a corruption-free field .....	1544
<b>Mirzaxmedova Dilafuz Farxatovna, Tukhtabaev Jamshid Sharafetdinovich</b>	
Особенности цифровизации налоговой системы в узбекистане .....	1548
<b>Юсупов Одил Омонович</b>	
Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda texnologik yangiliklarni joriy etish: muammolar va imkoniyatlar.....	1554
<b>Ismailov Akmal axsudovich, G'ulomov Ilhom Akramovich</b>	
Kichik biznes subyektlarini kreditlashda raqamli bank xizmatlaridan foydalanishning afzalliklari .....	1560
<b>Madjitova Maftuna Kamiljon qizi</b>	
Tadbirkorlikda tavakkalchilikni boshqarishning nazariy asoslari .....	1564
<b>Ziyatova Sitora Baxtiyorovna</b>	
Importance of media activity in negotiations.....	1569
<b>Fariza Xoldarova</b>	
Kredit portfeli risklarini diversifikatsiya qilish strategiyalari.....	1575
<b>Hamroyev Sherzod Axtamovich</b>	
Marketing strategiyasi tushunchasi va uning turizm sohasidagi ahamiyati .....	1580
<b>Komilov Dostonbek Ro'zimboy o'g'li</b>	
Banklarining faoliyatini tartibga solish yo'llari .....	1586
<b>Umirzoqova Aziza Olim qizi</b>	
Yashil iqtisodiyot sari: Kanada tajribasi asosida o'zbekiston uchun istiqbollar .....	1590
<b>Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi, Norboyev Odil Abrayevich</b>	
Aholi hayotiylik sifatining statistik tahlili .....	1595
<b>Ostonaqulov Dilshod Ismatilla o'g'li</b>	
Davlat moliyasini isloh qilish sharoitida budget jarayonini takomillashtirish.....	1602
<b>Sholdarov Dilshod Azimiddin o'g'li, Shamsitdinova Xonzoda Mardonbek qizi</b>	
Recent trends in the global stock market: a macro-level analysis with emphasis on asia and central asia (2023–2025) .....	1612
<b>Mamataliev Bobur Saidnazar ugli</b>	
Barqaror rivojlanishni ta'minlashda "yashil iqtisodiyot" ning o'rni .....	1617
<b>Murodov Sardor Nurali o'g'li, Toxirov Shodiyor Zafar o'g'li</b>	
Aholi daromadlari va ta'lim darajalarini turmush darajasiga ta'sirini baholash.....	1623
<b>Xusinov I.I.</b>	
Soliqlarni yig'iluvchanligini oshirish istiqbollari .....	1630
<b>To'xsanov Quدراتillo Nozimovich</b>	
Qoraqalpog'iston respublikasida xizmat ko'rsatishni rivojlantirish muammolari.....	1635
<b>Mirzayev Qulmamat Jonuzoqovich, Tleymuratov Bahadir Genjemuratovich</b>	
Forecasting and mitigating risks in international projects based on financial management principles.....	1641
<b>Oripova Saodat Mirfotikh kizi</b>	
Uglerod chiqindilarini buhgaletariya hisobiga integratsiya qilish: o'zbekiston iqtisodiyotida barqaror rivojlanish vositasi sifatida.....	1646
<b>Halilov Sherzod Akhmatovich</b>	



# UGLEROD CHIQINDILARINI BUHGALETERIYA HISOBIGA INTEGRATSIYA QILISH: O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA BARQAROR RIVOJLANISH VOSITASI SIFATIDA

**Halilov Sherzod Akhmatovich**

PhD., v.b., professor

ISFT instituti “Buhgalteriya hisobi” kafedrası mudiri

Email: [halilov86@gmail.com](mailto:halilov86@gmail.com)

<https://orcid.org/0000-0002-6230-5278>

**Annotatsiya:** Iqlim o‘zgarganligi muammosi va issiqxona gazlari chiqindilarining ortishi global va milliy darajada barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishda jiddiy to‘siqlardan biriga aylandi. Uglерod chiqindilarini aniq hisobga olish va ularni moliyaviy hisobotlarga integratsiya qilish korxonalarining ekologik mas’uliyatini oshirish, investitsion shaffoflikni ta’minlash va barqaror iqtisodiy siyosat yuritishda muhim vosita hisoblanadi. Mazkur maqolada uglерod chiqindilarini buhgalteriya hisobi tizimiga integratsiya qilishning nazariy asoslari, xalqaro amaliyotdagi yondashuvlar, shuningdek O‘zbekiston iqtisodiyotidagi real holat va imkoniyatlar tahlil qilinadi. Shu bilan birga milliy iqtisodiyotda uglерod hisobini joriy etish orqali ESG hisobotlarini takomillashtirish, yashil moliya bozoriga kirish imkoniyatlarini oshirish va korxonalarining barqarorlik darajasini baholash imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Maqola davomida xalqaro standartlar, jumladan GRI, ISSB, IFRS S1/S2 asosida buhgalteriya hisobida uglерod chiqindilarini aks ettirish usullari, moliyaviy hisobotlardagi integratsiya mexanizmi hamda O‘zbekiston uchun amaliy tavsiyalar taqdim etiladi.

**Kalit so‘zlar:** uglерod chiqindilari, barqarorlik, integratsiya, buhgalteriya hisobi, hisobot.

**Abstract:** The issue of climate change and the increase in greenhouse gas emissions have become a serious barrier to achieving sustainable development goals at both global and national levels. Accurately accounting for carbon emissions and integrating them into financial reporting is a crucial tool for enhancing corporate environmental responsibility, ensuring investment transparency, and implementing sustainable economic policies. This paper examines the theoretical foundations of integrating carbon emissions into accounting systems, the approaches used in international practices, as well as the real situation and opportunities in Uzbekistan's economy. Furthermore, it explores the potential for improving ESG reporting, increasing access to the green finance market, and evaluating the sustainability of enterprises through the introduction of carbon accounting into the national economy. The paper also presents methods for reflecting carbon emissions in accounting based on international standards such as GRI, ISSB, IFRS S1/S2, the integration mechanism in financial reporting, and practical recommendations for Uzbekistan.

**Key words:** carbon emissions, sustainability, integration, accounting, reporting.

**Аннотация:** Проблема изменения климата и увеличение выбросов парниковых газов стали серьезным препятствием для достижения целей устойчивого развития на глобальном и национальном уровнях. Точный учёт углеродных выбросов и их интеграция в финансовую отчетность является важным инструментом для повышения экологической ответственности предприятий, обеспечения инвестиционной прозрачности и ведения устойчивой экономической политики. В данной статье рассматриваются теоретические основы интеграции углеродных выбросов в систему бухгалтерского учёта, подходы, применяемые в международной практике, а также текущая ситуация и возможности в экономике Узбекистана. Кроме того, рассматривается возможность улучшения ESG отчетности, увеличения доступа к зеленому финансовому рынку и оценки уровня устойчивости предприятий через внедрение углеродного учёта в национальной экономике. В статье также представлены методы отражения углеродных выбросов в бухгалтерском учете в соответствии с международными стандартами, такими как GRI, ISSB, IFRS S1/S2, механизм интеграции в финансовую отчетность и практические рекомендации для Узбекистана.

**Ключевые слова:** углеродные выбросы, устойчивость, интеграция, бухгалтерский учет, отчетность.



## KIRISH

So'nggi o'n yilliklarda global miqyosda iqlim o'zgarishi masalasi inson tsivilizatsiyasi oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri sifatida maydonga chiqdi. Yer sharida haroratning bosqichma-bosqich ortishi, qutb muzliklarining erishi, halokatli tabiiy ofatlarning ko'payishi va biokilma-kiligi yo'qolishi — bularning barchasi issiqxona gazlari, ayniqsa, karbonat anhidrid ( $\text{CO}_2$ ), metan ( $\text{CH}_4$ ) va azot oksidi ( $\text{N}_2\text{O}$ ) miqdorining ortishi bilan bevosita bog'liq. Iqlim o'zgarishi bo'yicha Hukumatlararo ekspertlar guruhi (Intergovernmental Panel on Climate Change (IPCC)) ma'lumotlariga ko'ra, agar mavjud tendensiyalar davom etsa, XXI asrning oxiriga borib Yer harorati sanoat davridan avvalgi darajaga nisbatan  $2,7^\circ\text{C}$  dan oshishi mumkin [13].

Iqlim o'zgarishi muammosiga qarshi xalqaro sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirish maqsadida 2015 yil dekabrda Parij iqlim kelishuvi qabul qilindi. Bu hujjatda 195 davlat global emissiyalarni cheklash, ekologik barqarorlikni ta'minlash va iqlim muammolariga moslashuv siyosati yuritish bo'yicha milliy majburiyatlarni (Nationally Determined Contributions (NDC)) amalga oshirishga rozi bo'ldi. Shuningdek, kelishuvda 2023 yildan boshlab har besh yilda global baholash (Global Stocktake) mexanizmini joriy etish belgilandi [20].

Parij kelishuvining asosiy tamoyillaridan biri — chiqindilar va ekologik ta'sirlarni hisobga olishda shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlashdir. Buning uchun mamlakatlar BMTning Atrof-muhit bo'yicha dasturi (United Nations Environment Programme (UNEP)) tavsiya qilgan xalqaro standartlarga asoslangan hisobot tizimini yaratishlari lozim. Shu nuqtai nazardan, global atmosfera tadqiqotlari uchun chiqindilar ma'lumotlar bazasi (Emissions Database for Global Atmospheric Research (EDGAR)) muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda. Mazkur ma'lumotlar bazasi  $\text{CO}_2$ ,  $\text{CH}_4$ ,  $\text{N}_2\text{O}$  va floriashgan gazlar bo'yicha global va mintaqaviy darajadagi chiqindilarni aniq va miqdoriy baholaydi [16].

O'zbekiston ham iqlim o'zgarishiga ta'sir qiluvchi emissiyalar bo'yicha o'z ulushiga ega. EDGAR ma'lumotlar bazasining 2023 yil hisobotiga ko'ra, mamlakatda 1990 yildagi 164,5 million tonna  $\text{CO}_2$  ekvivalenti teng bo'lgan issiqxona gazlari chiqindilari 2023 yilda 214,5 million tonnaga yetgan. Bu 30 foizlik o'sishni anglatib, iqtisodiy faollikning oshishi, sanoatlashuv, aholi soni ortishi va transport sektoridagi kengayishlar bilan bog'liq. Shu bilan birga, YalMga nisbatan emissiyalar kamaygani, ya'ni 1990 yilda har 1000 dollarga 2,106 t  $\text{CO}_2$ , 2023 yilda 0,672 t  $\text{CO}_2$  ekologik samaradorlikka intilish mavjudligini ko'rsatadi [8].

Barqaror rivojlanishga erishishda ekologik tavakkalchiliklarni baholash va hisobot berish jarayonlarini iqtisodiy tizimga, xususan buhgalteriya hisoboti tizimiga integratsiya qilish muhim hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, korporativ moliyaviy hisobotlar doirasida uglerod chiqindilarini aniq aks ettirish, ESG hisobotlarni rivojlantirish va yashil moliya bozorida ishtirok etish uchun zarur axborotni shakllantirish lozim bo'ladi.

Global hisobot tashabbusi (Global Reporting Initiative (GRI)), moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (IFRS S1/S2) kabi xalqaro standartlar ishlab chiqilgan bo'lib, ular korxonalarining ekologik va ijtimoiy mas'uliyatini baholash, uglerod emissiyalarini hisoblash va hisobot berishga doir aniq yo'riqnomalarni o'z ichiga oladi. Ammo O'zbekistonda bu standartlarni amalga oshirish va buhgalteriya hisoboti tizimiga joriy etish hali etarlicha darajada emas.

Ushbu maqolada global iqlim siyosatining mahalliy iqtisodiyotga ta'siri, korxonalarining barqarorlikni ta'minlashdagi roli va uglerod chiqindilarini buhgalteriya hisoboti tizimiga integratsiya qilishning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilinadi. Shuningdek, xalqaro tajriba, O'zbekistondagi real holat va iqtisodiy sharoitlar kontekstida ESG hisobotlarni takomillashtirish, moliyaviy hisobotlarda uglerod emissiyalarini aks ettirish mexanizmlari hamda amaliyotga oid tavsiyalar keltiriladi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi — uglerod chiqindilarini buhgalteriya hisoboti tizimiga integratsiya qilishning nazariy va amaliy asoslarini o'rganish, xalqaro standartlar, jumladan GRI, IFRS S1 va S2 asosida korporativ hisobotlarda uglerod emissiyalarini aniq va shaffof aks ettirish mexanizmlarini tahlil qilish hamda O'zbekiston iqtisodiyoti sharoitida bu amaliyotni joriy etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot doirasida quyidagi vazifalar belgilandi:

iqlim o'zgarishi va uglerod chiqindilarining iqtisodiy xavflarini tahlil qilish;

xalqaro hisobot standartlarining mohiyati va ahamiyatini o'rganish;

O'zbekistondagi sohalar kesimida emissiyalar holatini tahlil qilish;

buhgalteriya hisobida uglerod chiqindilarini aks ettirish imkoniyatlarini baholash;

ESG hisobotlarni rivojlantirish va yashil moliyaga chiqish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqish.

Metodologiya sifatida qiyosiy tahlil, xalqaro normativ hujjatlarni o'rganish, EDGAR ma'lumotlari asosida statistik va dinamik tahlil usullari qo'llanildi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va barqaror rivojlanishni ta'minlash maqsadida global darajada issiqxona gazlari (GHG) chiqindilarini hisobga olish va hisobot berish bo'yicha turli xalqaro standartlar, tashkilotlar va



ma'lumotlar bazalari ishlab chiqilgan. Ushbu tizimlar hukumatlar va korxonalar faoliyatining ekologik ta'sirini aniqlash, baholash va shaffof hisobot shaklida taqdim etishga qaratilgan.

Bu borada keng qo'llaniladigan tizimlardan biri — GRI (Global Reporting Initiative) hisobot standartlaridir. Xususan, GRI 305 standarti korxonalarga CO<sub>2</sub>, CH<sub>4</sub>, N<sub>2</sub>O va florlashgan gazlar kabi chiqindilarni Scope 1, Scope 2 va Scope 3 toifalari bo'yicha aniq hisoblash va taqdim etishni tavsiya etadi (GRI, 2016) [11]. GRI xalqaro ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatuvchi kompaniyalar tomonidan barqarorlik hisobotlarini shakllantirishda muhim metodologik asos sifatida xizmat qilmoqda.

Shuningdek, IFRS S1 va IFRS S2 standartlari ham 2023 yilda qabul qilingan bo'lib, International Sustainability Standards Board (ISSB) tomonidan ishlab chiqilgan. Bu standartlar korxonalarining barqarorlik xavflari, xususan, iqlim o'zgarishi bilan bog'liq moliyaviy xatarlarini moliyaviy hisobotlarga integratsiya qilishni nazarda tutadi [12].

IPCC (Intergovernmental Panel on Climate Change) — iqlim o'zgarishi bo'yicha xalqaro yetakchi ilmiy organ hisoblanadi. IPCC tomonidan 2006 va 2019 yillarda e'lon qilingan metodologik ko'rsatmalarda GHG chiqindilarini hisoblash uchun aniq hisoblash formulalari, koeffitsiyentlar va tarmoqlar bo'yicha emissiya manbalari bayon etilgan [14].

Xalqaro siyosiy asos sifatida UNFCCC (United Nations Framework Convention on Climate Change) va UNEP (United Nations Environment Programme) kabi tashkilotlar davlatlardan Parij iqlim kelishuvi doirasida milliy darajada belgilangan hissalar (NDCs) orqali chiqindilarni kamaytirish, hisobot tayyorlash va shaffoflikni ta'minlashni talab etadi [20].

GHG hisobotlarining miqdoriy asosi sifatida EDGAR (Emissions Database for Global Atmospheric Research) ma'lumotlar bazasi muhim ahamiyatga ega. EDGAR — Evropa Komissiyasining Evropa Birlashma Tadqiqot Markazi (JRC) va Niderlandiyaning PBL tashkiloti hamkorligida yuritiladigan bazadir. U IPCC metodologiyasi asosida CO<sub>2</sub>, CH<sub>4</sub>, N<sub>2</sub>O va florlashgan gazlar bo'yicha mamlakatlar va tarmoqlar kesimida chiqindilarni aniq hisoblab chiqadi [8].

Shuningdek, Jahon banki (World Bank) va Xalqaro valuta jamg'armasi (IMF) kabi tashkilotlar ham GHG chiqindilari, yashil investitsiyalar va iqlim moliyasi bo'yicha tahlil va hisobotlar tayyorlash orqali davlatlar uchun metodologik va moliyaviy asoslarni taqdim etmoqda.

GHG chiqindilari to'rtta asosiy guruhga tasniflanadi:

CO<sub>2</sub> (karbonat anhidrid) – asosan yoqilgi yoqish va sanoat jarayonlari natijasida;

CH<sub>4</sub> (metan) – chorvachilik, chiqindi va neft-gaz sohalaridan;

N<sub>2</sub>O (azot oksidi) – qishloq xo'jaligidagi o'g'itlar va yerni ishlash jarayonlaridan;

Florlashgan gazlar (F-gases) – sanoat, sovutish va konditsioner tizimlaridan kelib chiqadi.

Shu bilan birga, issiqxona gazlari chiqindilarini (GHG) hisobga olish va hisobot tizimlarini takomillashtirishda an'anaviy moliyaviy hisobot doirasini kengaytirish, xususan, ekologik ko'rsatkichlarni integratsiya qilish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur yondashuv yashil buhgalteriya konsepsiyasida keng yoritilgan bo'lib, bu sohadagi ilmiy va amaliy tahlillar ham alohida e'tiborga loyiq.

Yashil buhgalteriya hisobi kompaniyaning operatsion faoliyatining atrof-muhitga bo'lgan salbiy ta'sirini nazorat qilish mexanizmi sifatida xizmat qiladi. Bu atrof-muhitga ta'sir etuvchi operatsiyalarni aniqlash, tan olish, hisobga olish va tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. V.Desvanto fikricha, yashil buhgalteriya hisobini joriy etish atrof-muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va kompaniyaning raqobatbardoshlikdagi afzalligi sifatida ijobiy imidjini mustahkamlaydi [7]. I.Endiana yashil buhgalteriya hisobi bu kompaniya o'z ishlab chiqarish jarayonida resurslardan barqaror, samarali va foydali foydalanishga e'tibor qaratadigan konsepsiya bo'lib, u kompaniya rivojlanishi bilan atrof-muhit funksiyalari o'rtasida mutanosiblikni ta'minlaydi va jamiyat uchun foyda keltiradi deb hisoblaydi. Bu kontekstda yashil buhgalteriya hisobi konsepsiyasi tejamkorlik tamoyilini asos qilib oladi: yer maydonini, xomashyoni va energiyani tejash, hamda ekotizimga asoslangan yondashuvni qo'llaydi [10].

Shu sababli, yashil buhgalteriya amaliyoti kompaniyalarga atrof-muhit bilan bog'liq xarajatlarni oqilona boshqarish imkonini berib, natijada ularning umumiy ishlash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa yashil buhgalteriya hisobi bilan kompaniya samaradorligi o'rtasida ijobiy bog'liqlik bo'lishi kerakligini anglatadi. Yashil buhgalteriya hisobi amaliyoti bu kompaniya tomonidan atrof-muhitni ifloslanishidan himoya qilishga qaratilgan kichik, ammo muhim qadam hisoblanadi. H.Maama, Y.Ginting va A.Vibovo ta'kidlashicha, yashil buhgalteriya hisobining asosiy maqsadi — kompaniya faoliyati davomida atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan xarajatlarni aniqlash, hisobga olish va ularni manfaatdor tomonlarga ochiq tarzda taqdim etish orqali ekologik mas'uliyatni ta'minlashdan iborat [18]. Shu sababli, yashil buhgalteriya hisobini joriy etish investorlarning qaror qabul qilish jarayoniga ta'sir qilishi mumkin va bilvosita holda kompaniya qiymatining oshishiga xizmat qiladi.

Agar kompaniya o'zining ekologik xarajatlari haqida hisobot taqdim eta olsa, jamiyat nazarida mas'uliyatli va yaxshi kompaniya sifatida qonuniy maqomga ega bo'ladi. Bunday faoliyat, atrof-muhitga nisbatan yetarli



darajada g'amxo'rlik ko'rsatishi bilan, ekologik yo'nalishdagi investorlarning e'tiborini jalb qiladi va bu esa, o'z navbatida, kompaniya qiymatining oshishiga olib keladi.

Al-Dxaymesh (Al-Duhaimesh) tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotda yashil buhgalteriya hisobini joriy etish kompaniya qiymatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ta'kidlangan. Muallifga ko'ra, kompaniyaning atrof-muhitga ta'siriga doir ma'lumotlarni ochiq va shaffof ravishda taqdim etishi manfaatdor tomonlarda ijobiy jamoatchilik fikrini shakllantiradi. Bu esa o'z navbatida kompaniyaning ishonchliligi va barqarorligiga bo'lgan ishonchni oshirib, uning bozorga qiymatini ko'tarishga xizmat qiladi [2]. Annqita va boshqalar ham o'z tadqiqotida yashil buhgalteriya hisobining kompaniya qiymatiga sezilarli ta'sirga ega ekanini isbotlagan, chunki bu amaliyot orqali kompaniya atrof-muhitga nisbatan g'amxor ekanligiga urg'u berishadi [4]. M.Chasbiandani va T.Raxadjo yashil buhgalteriya hisobi kompaniya va uning faoliyat yuritayotgan muhiti o'rtasidagi munosabatlarni boshqarishda muhim o'rin tutadi va bu orqali kompaniya uchun ijobiy qiymat yaratilishini ta'kidlaydi [6]. Shuningdek, M.Lusiana, A.Sudrajat va D.Raxmavatilari ham yashil buhgalteriya hisobi amaliyotini joriy etish kompaniya qiymatining o'sishiga xizmat qilishi mumkinligini ilmiy asoslab bergan. H.Zulxaymi esa yashil buhgalteriyani joriy etish kompaniya foydasi va aksiyalari qiymatini oshirishi mumkinligini ta'kidlaydi [22].

Kompaniyaning iqtisodiy faoliyati natijasida yuzaga kelayotgan atrof-muhitning ifloslanishiga qo'shimcha ravishda, global isish masalasi ham jahon miqyosida jiddiy muammolardan biriga aylangan. Global isish — bu yer sharidagi haroratning yil sayin o'sib borishi fenomeni bo'lib, asosan issiqxona gazlarining atmosferada to'planishi oqibatida yuzaga keladi. Ushbu gazlar quyosh nurlarining chiqib ketishiga to'sqinlik qiladi [4]. Karbon chiqindilarini oshkor etish (carbon emission disclosure) kompaniya uchun muhim hisobot elementlaridan biri bo'lib, ayniqsa investorlar uchun katta ahamiyatga ega. Chunki ular faqat moliyaviy faoliyatga emas, balki kompaniyaning atrof-muhitga munosabatiga ham e'tibor qaratadi [15]. A. Xartanto va R. Prayo (2024) ta'kidlashicha, kompaniyalarni uglerod chiqindilariga oid faoliyatlari global miqyosda ortib boryapti, bu jarayon kompaniyaning o'sishi va rivojlanishiga doir strategik qarorlarga ta'sir etuvchi muhim omilga aylanib bormoqda [23].

R.Bahriyanshax va Y. Ginting tadqiqotlarida uglerod chiqindilarini oshkor etish kompaniya samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini isbotlagan [5].

Buxgalteriya hisobida uglerod chiqindilarini aks ettirish orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin bo'ladi: Korxonaning ekologik xavflarga duchorlik darajasi aniqlanadi;

Investor va manfaatdor tomonlarga barqarorlikka oid moliyaviy tavakkalchiliklar ochiqilanadi;

Korxonaning uglerod izi kamaytirish strategiyalari moliyaviy hisobotlar bilan uyg'unlashtiriladi [21].

Shunday qilib, xalqaro tajriba va ilmiy manbalar tahlili uglerod chiqindilarini hisobga olish va yashil buxgalteriya amaliyotini joriy etish korxonalarining barqarorlik darajasini oshirish, investitsion jozibadorlikni ta'minlash va global iqlim maqsadlariga hamohang faoliyat yuritishda muhim vosita bo'lib xizmat qilishini tasdiqlaydi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Parij iqlim kelishuvi atrof-muhitni muhofaza qilish va global iqlim siyosatini muvofiqlashtirishda asosiy xalqaro huquqiy hujjat sifatida e'tirof etiladi. Ushbu kelishuv doirasida 2023 yildan boshlab har besh yilda global baholash jarayonlari (Global Stocktake) orqali hisobot berish va shaffoflikni ta'minlash mexanizmlari joriy etilishi belgilangan. Biroq, xalqaro hisobotlarda qayd etilishicha, amaldagi chiqindilar darajasi belgilangan maqsad — harorat o'sishini 1,5°C bilan cheklashga qaratilgan kamaytirish ssenariylariga to'liq mos kelmaydi.

BMTning Atrof-muhit bo'yicha dasturining (UNEP) 2023-yilgi hisobotiga ko'ra, 2030-yilga qadar kamida 17–27 gigatonna CO<sub>2</sub> ekvivalenti miqdorida emissiyalarni kamaytirish zarur hisoblanadi. Bu iqlim o'zgarishini sanoat davridan oldingi darajaga nisbatan 1,5°C darajada cheklashning eng samarali va iqtisodiy jihatdan maqbul yo'li sifatida ko'rsatilgan [19].

Ushbu global majburiyatlar va maqsadlar fonida, O'zbekistondagi emissiyalar holatini o'rganish, ularning sohalari kesimidagi dinamikasi va tarkibiy tahlilini amalga oshirish ayni dolzarb masala hisoblanadi. EDGAR tomonidan e'lon qilingan 2023-yilgi hisobotga ko'ra, O'zbekistonda umumiy issiqxona gazlari chiqindilari 1990-yildagi 164,5 million tonna CO<sub>2</sub> ekvivalenti dan 2023 yilga kelib 214,5 million tonna CO<sub>2</sub> ekvivalenti gacha o'sgan. Bu 30 foizlik mutlaq o'sishni anglatib, asosan iqtisodiy faollikning kuchayishi, aholi sonining ortishi hamda ayrim sohalardagi tezkor sanoatlashuv jarayonlari bilan izohlanadi.

Shu bilan birga, jon boshiga to'g'ri keladigan GHG chiqindilari 1990 yilda 8,039 t CO<sub>2</sub>eq bo'lgan bo'lsa, 2023 yilda 6,231 t CO<sub>2</sub>eq ni tashkil etgan. Bu demakki, har bir fuqaro hissasiga to'g'ri kelayotgan chiqindilar nisbatan kamaygan, bu esa demografik o'sish fonida energiya samaradorligi va iqtisodiy islohotlar ta'sirida sodir bo'lgan.


Yangi iqtisodiy paradigmada, YalMning har 1000 dollarga to'g'ri keladigan chiqindilar miqdori 1990 yilda 2,106 t CO<sub>2</sub> bo'lgan bo'lsa, 2023 yilda bu ko'rsatkich 0,672 t CO<sub>2</sub> gacha pasaygan. Bu raqamlar O'zbekistonda iqtisodiy o'sish jarayonlari nisbatan "kam uglerodli" tarzda amalga oshirilayotganini ko'rsatadi.



Sohalar kesimida chuqur tahlil shundan dalolat beradiki, 1990–2023 yillar davomida O‘zbekistondagi GHG chiqindilarining o‘shishi turli sohalarda farqli sur‘atda kuzatilgan. Energetika sohasida chiqindilar 9 foizga ortgan bo‘lib, bu sektordagi o‘shish barqaror xarakterga ega. Ammo so‘nggi yillarda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish va qat‘iy milliy siyosat tufayli o‘shish sur‘ati sezilarli darajada sekinlashgan.

Sanoat yong‘inlari va jarayonlari sohasida 194 foizga oshgan chiqindilar sanoatlashuv jarayonlarining tezlashuvi, energiya talab qiluvchi texnologiyalarni keng qo‘llanishi va modernizatsiya jarayonlarining GHG faolligini oshirganini bilan izohlanadi. Ushbu sektor so‘nggi o‘n yillikda eng tez o‘svuchi yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Ajablanarlisi shundaki, bino va inshootlar tarmog‘ida 41 foizga pasayish qayd etilgan. Bu esa ehtimol, energiya samaradorligi bo‘yicha islohotlar, zamonaviy isitish va yoritish tizimlarini joriy etish va davlat siyosatida barqaror qurilish standartlarining kuchaygani bilan bog‘liq. Transport sohasidagi chiqindilar 115 foizga oshgan bo‘lib, bu avtotransport vositalarining ko‘payishi, neft mahsulotlariga bo‘lgan talab va yo‘l infratuzilmasining rivojlanishi bilan izohlanadi. Buning natijasida shaharlarda havo ifloslanishi va iqlimga salbiy ta‘sir kuchaygan.




1-rasm. 1990-2023 yillarda O‘zbekistonda sohalar bo‘yicha GHG chiqindilarining o‘zgarishi<sup>1</sup>

Yoqilgi qazib chiqarish sohasida esa 199 foizga o‘shish qayd etilgan, bu esa mamlakatda tabiiy gaz, neft va boshqa yoqilgi manbalari qazib chiqarilishi bilan bog‘liq. Bu tarmoqda ifloslanishni nazorat qilish mexanizmlarining etarlicha samarali bermayotgani kuzatilmoqda.

Qishloq xo‘jaligi sohasida 83 foizlik o‘shish asosan chorvachilik faoliyati, erni o‘g‘itlash va ishlov berish orqali atmosferaga metan va azot oksidlarining chiqishi bilan bog‘liq. Bu sohada chiqindilarni kamaytirish uchun biometan texnologiyalari va agroekologik yondashuvlar talab etiladi. Nihoyat, chiqindilarni boshqarish sohasidagi chiqindilar 112 foizga oshgan. Bu aholining ko‘payishi, shaharlashuvning tezlashuvi, iste‘mol darajasining o‘shishi va chiqindilarni qayta ishlash infratuzilmasining hali etarli darajada rivojlanmaganligi bilan izohlanadi.

2023 yilda O‘zbekistondagi issiqxona gazlari chiqindilarining tarkibiy tahliliga ko‘ra, umumiy chiqindilarning 64,3%ini karbonat angidrid (CO<sub>2</sub>) tashkil etgan bo‘lib, bu asosan energetika va sanoat tarmoqlaridan kelib chiqqan. Shu bilan birga, 29,2% metan (CH<sub>4</sub>) hissasiga to‘g‘ri kelib, uning asosiy manbalari qishloq xo‘jaligi va chiqindilarni boshqarish sohalari hisoblanadi.

<sup>1</sup> Ushbu diagramma EDGAR (Emissions Database for Global Atmospheric Research) ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan. [https://edgar.jrc.ec.europa.eu/report\\_2024](https://edgar.jrc.ec.europa.eu/report_2024)



2-rasm. O'zbekistonda 2023 yildagi GHG chiqindilarining manba turlari bo'yicha tarkibi<sup>2</sup>

Bundan tashqari, azot oksidi (N<sub>2</sub>O) chiqindilari 6,4%ni tashkil etib, er xo'jaligidagi o'g'itlardan foydalanish va nurlash jarayonlari bilan bog'liq. Qolgan 0,1% ulush esa florlashgan gazlarga (F-gazlar) to'g'ri kelib, ular asosan sanoat jarayonlari va sovutish tizimlaridan chiqarilgan.

2022 yilga nisbatan umumiy GHG chiqindilar hajmi 1 foizga pasaygan bo'lsa-da, ayrim sohalarda, jumladan chiqindilarni boshqarish sohasida 2 foizlik o'sish qayd etilgan. Bu tendensiya O'zbekistonda issiqxona gazlari chiqindilarini hisobga olish va hisobot berish amaliyotini yanada takomillashtirish, ekologik shaffoflikni oshirish hamda iqtisodiyotda uglerod intensiv faoliyatni kamaytirish yuzasidan hali katta salohiyat mavjudligini anglatadi.

Bunday milliy ehtiyojlar va xalqaro majburiyatlar shart-sharoitida, davlatlar va xo'jalik yurituvchi subyektlardan issiqxona gazlari chiqindilarini aniq va yagona metodologiya asosida hisobga olish hamda hisobot berish talab etiladi. Shu nuqtai nazardan, EDGAR (Emissions Database for Global Atmospheric Research) ma'lumotlar bazasi muhim manba sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. EDGAR — mamlakatlar va iqtisodiyot tarmoqlari kesimida CO<sub>2</sub>, CH<sub>4</sub>, N<sub>2</sub>O hamda florlashgan gazlar bo'yicha mustaqil va miqdoriy hisob-kitoblarni taqdim etuvchi global ma'lumotlar bazasi bo'lib, u IPCC ning so'nggi metodologik ko'rsatmalariga asoslangan holda ishlab chiqilgan [16].

EDGAR ma'lumotlar bazasi orqali taqdim etiladigan hisobotlar Parij kelishuvi doirasida shaffoflikni ta'minlash, milliy majburiyatlarni baholash va ekologik hisobotlar tizimini buxgalteriya hisoboti ga integratsiya qilish kabi vazifalarda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, issiqxona gazlari chiqindilarining iqtisodiy natijalarini baholash, ularni moliyaviy hisobotlarga integratsiya qilish orqali korxonalar ning barqaror rivojlanishga qo'shayotgan hissasini aniq ko'rsatish muhim ahamiyat kasb etadi. Buxgalteriya hisobida ekologik tavakkalchiliklar va chiqindilarni inobatga olish orqali nafaqat shaffoflikka, balki xalqaro moliyaviy standartlarga muvofiq hisobot yuritishga ham erishish mumkin bo'ladi.

Hozirgi kunda O'zbekistondagi ko'plab xo'jalik yurituvchi subyektlar buxgalteriya hisobini yuritishda 1C:Buxgalteriya dasturidan foydalanmoqdalar. Ushbu dastur, asosan, hisobvaraqlar tizimi, soliq hisobotlari, ombor va xaridlar hisobi, ish haqi va asosiy vositalar kabi funksional bloklarni o'z ichiga olgan bo'lib, ekologik ko'rsatkichlar, jumladan uglerod chiqindilarini (GHG) hisobga olish va tahlil qilishga yo'naltirilgan. Amaldagi 1C dasturi konfiguratsiyalarida Scope 1, Scope 2 va Scope 3 toifalari bo'yicha emissiyalarni klassifikatsiya qilish va aniq hisoblash uchun maxsus modul yoki shablonlar mavjud emas. Korxonada elektr energiyasi, yoqilg'i, xomashyo va materiallar sarfi bo'yicha ma'lumotlar to'planadigan bo'lsa-da, ularning uglerod izi (carbon footprint) bilan bog'liq hisob-kitoblar avtomatlashtirilmagan.

Ushbu holatdan kelib chiqib, 1C dasturi tizimida uglerod chiqindilarini hisoblash uchun maxsus qo'shimchalar, formulalar va hisobot shablonlarini yaratish zarur. Bu hisobotlar GRI 305 yoki IFRS S2 standartlari asosida shakllantirilsa, ESG hisobotlari uchun baza vazifasini o'taydi.

Qolaversa, 1C dasturidagi ma'lumotlar asosida uglerod emissiyasini hisoblash imkonini beruvchi avtomatlashtirilgan Excel shablonlari yordamida o'tish davridagi yondashuv sifatida foydalanish mumkin.

<sup>2</sup> Ushbu diagramma EDGAR (Emissions Database for Global Atmospheric Research) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan. [https://edgar.jrc.ec.europa.eu/report\\_2024](https://edgar.jrc.ec.europa.eu/report_2024)



Bunda so'rovnomalar yoki normativ koeffitsiyentlar, masalan, IPCC yoki UNEP manbalaridagi emission factor orqali energiya sarfi va transport xarajatlariga nisbatan CO<sub>2</sub>, CH<sub>4</sub> yoki N<sub>2</sub>O chiqindilari hisoblanishi mumkin.

Hozirgi paytda O'zbekistondagi aksariyat korxonalar hisobotlarni asosan an'anaviy moliyaviy ko'rinishda — ya'ni balans varagi, foyda va zarar hisobi, pul oqimlari hisobi va soliq hisobotlari asosida taqdim etib kelmoqdalar. Ekologik ko'rsatkichlar esa ushbu hisobotlar tarkibida aks etirilmaydi yoki alohida hisobot sifatida shakllantirilmagan. ESG (Environmental, Social, Governance) hisobotlari esa moliyaviy, ekologik va ijtimoiy mas'uliyat ko'rsatkichlarini birgalikda qamrab oluvchi keng qamrovli hisobot turi sifatida jahon amaliyotida tobora muhim o'rin egallamoqda.

Shu bilan birga, so'nggi yillarda O'zbekistonda ayrim yirik sanoat korxonalarida ESG hisobotlarni tayyorlash va jamoatchilikka taqdim etish amaliyoti shakllana boshlaganini kuzatilmokda. Jumladan:

Navoiyning kon-metallurgiya kombinati o'zining barqaror rivojlanish bo'yicha yillik hisobotlarini rasmiy veb-saytida (<https://actual.ngmk.uz>) e'lon qilib bormoqda. Ushbu hisobotlarda kompaniyaning ekologik tashabbuslari, ijtimoiy loyihalari va korporativ boshqaruv tizimidagi yangiliklar keng yoritilgan. NKMK 2019-yildan buyon har yili ushbu hisobotlarni chop etib kelmoqda.

Navoiyaazot AJ ham ESG faoliyatiga doir ma'lumotlarni o'zining rasmiy veb-sayti (<https://navoiyazot.uz>) orqali jamoatchilikka taqdim etadi. Korxonaning ekologik boshqaruv strategiyasi, ijtimoiy mas'uliyat tashabbuslari va boshqaruv tizimidagi islohotlar bo'yicha ma'lumotlar hisobotlar tarkibida bayon etilgan.

Bu amaliyotlar O'zbekistonda ESG hisobotlariga bo'lgan talab va ehtiyoj bosqichma-bosqich shakllanayotganini, shuningdek, xalqaro shaffoflik va barqarorlik mezonlariga moslashuv jarayoniga asos solinayotganini ko'rsatadi.

Biroq ESG hisobotlarni joriy etishda bir qator to'siqlar ham mavjud:

Me'yoriy bazaning yetarli emasligi: ESG hisobotlarini majburiy tarzda taqdim etishni talab qiluvchi normativ aktlar hozircha mavjud emas;

Methodologik bilim va tajribaning cheklanganligi:

Buxg'alterlar va boshqa mutaxassislar ESG indikatorlarini hisoblash bo'yicha ko'nikmalar shakllanmagan. Avtomatlashtirilmagan tizimlar: 1C dasturi ESG ko'rsatkichlarini hisoblash uchun maxsus moduliga ega emas.

Iqtisodiy manfaatdorlikning past darajasi:

ESG hisobotlari bilan ishlashni rag'batlantiradigan moliyaviy yoki normativ mexanizmlar mavjud emas.

Shu bilan birga, ESG hisobotlarni joriy etish bo'yicha bir qancha imkoniyatlar mavjud:

Xalqaro bozorlar va investorlar talablariga moslashish orqali eksport va sarmoya jalb qilish imkoniyatining ortishi;

Barqarorlik reytinglarida yuqalish orqali korporativ imidjni yaxshilash;

Yashil moliya (green finance), ESG obligatsiyalar va xalqaro grant dasturlarida ishtirok etish imkoniyati;

Xalqaro standartlar (GRI, IFRS S2, ISSB) asosida hisobot tayyorlash orqali shaffoflik va hisobdorlikni oshirish.

Uglerod chiqindilarini hisobga olish va ESG hisobotlarini tayyorlashda malakali kadrlarga, buxg'alterlar, ekologlar, iqtisodchilar va strategik rejalashtiruvchilarni jalb qilishning bilim va ko'nikmalari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda O'zbekistondagi buxgalteriya va moliya yo'nalishlaridagi mutaxassislar asosan an'anaviy moliyaviy hisobotlar va soliq tizimi asosida tayyorlanmoqda. Yashil hisobot (green reporting) va GHG (greenhouse gas) hisob-kitoblari bo'yicha bilim darajasi esa aksar hollarda cheklangan.

O'rta va oliy ta'lim muassasalarida ESG, yashil buxgalteriya, iqlim moliyasi va ekologik hisobot mavzulari mustaqil fan sifatida joriy etilmagan. Ba'zi xususiy trening markazlari va xalqaro loyihalar doirasida qisqa muddatli seminarlar o'tkazilayotgan bo'lsa-da, bu etarli emas. Bu esa kadrlar bozorida ekologik tavakkalchiliklarni aniqlash va hisobga olish bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega kadrlar etishmasligiga olib kelmoqda.

Shu bilan birga, mavjud normativ-huquqiy baza ESG va uglerod hisobotlarini moliyaviy hisobotlar bilan integratsiya qilish bo'yicha hali to'liq shakllanmagan.

Hozirgi paytda:

Buxgalteriya hisobining milliy standartlarida (UBS) ekologik xarajatlarni tasniflash yoki chiqindilarni hisobga olishga doir alohida yo'riqnoma mavjud emas;

ESG hisobotlarini taqdim etish majburiy hisobotlar tartibiga kiritilmagan;

Korxonalarda ekologik ko'rsatkichlarni hisoblash uchun yagona metodik qo'llanma va hisoblash formulalari ishlab chiqilmagan.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyot tamoyillarini iqtisodiy faoliyatga integratsiya qilish borasida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida ekologik barqarorlikni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va iqlim o'zgarishiga moslashuv mexanizmlarini shakllantirish belgilangan. Ayniqsa, sanoat



korxonalari faoliyatida ekologik mas'uliyatni oshirish va barqaror faoliyat ko'rsatkichlarini hisobot tizimi orqali ochiq va shaffof taqdim etish muhim vazifalardan biriga aylangan.

Shu bilan birga, ushbu yo'nalishda huquqiy va institutsional baza yaratish bo'yicha qadamlar ham nazarda tutilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktyabrda qabul qilingan PQ-4477-sonli "2019–2030 yillarda O'zbekiston Respublikasining 'yashil' iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi" qarori ushbu sohadagi tub islohotlar uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Mazkur qarorda "yashil" iqtisodiyot tamoyillarini milliy iqtisodiyotga joriy etish, tegishli sohalarda texnologik modernizatsiyani amalga oshirish va "yashil" moliya mexanizmlarini ishlab chiqish bo'yicha aniq vazifalar belgilangan [1].

Xususan, ushbu qarorga muvofiq quyidagi ustuvor vazifalar belgilab berilgan:

Iqtisodiyotda energiya samaradorligini oshirish va resurslardan oqilona foydalanish — korxonalarining ekologik samaradorligini oshirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va chiqindilarni kamaytirishga qaratilgan choratadbirlar;

Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va resurslardan foydalanishni diversifikatsiya qilish — quyosh, shamol, biomassa va gidro manbalaridan foydalanishni kengaytirish hamda energiya ishlab chiqarish tizimini diversifikatsiyalash;

Iqlim o'zgarishiga moslashuv va tabiiy ekotizimlarni muhofaza qilish — Orolbo'yi hududidagi ekologik muammolarni hal etish, suv va yer resurslaridan barqaror foydalanishni ta'minlash;

"Yashil" iqtisodiyotni ta'lim va ilmiy tadqiqotlarga integratsiya qilish — yuqori malakali ekologik bilimlarga ega kadrlarga tayyorlash, oliy va o'rta ta'lim dasturlariga "yashil" bilimlarni kiritish va ilmiy tadqiqot markazlari bilan hamkorlikni kuchaytirish.

Mazkur choratadbirlarning amalga oshirilishi O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyot modelini shakllantirishga, atrof-muhitni muhofaza qilishga va mamlakatning barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, korporativ darajada ESG (Environmental, Social, Governance) hisobotlarini joriy etish, korxonalarining ekologik xatarlarini baholash va karbon izini aniqlash bo'yicha zamonaviy yondashuvlarni qo'llash zaruriyati ortib bormoqda.

O'zbekistonda barqaror rivojlanish, yashil iqtisodiyot va ekologik shaffoflikni ta'minlash maqsadida xalqaro hisobot standartlari va metodologik yondashuvlarni milliy hisobot tizimiga integratsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu, ayniqsa, korxonalarining ekologik tavakkalchiliklarini aniqlash, uglerod chiqindilarini hisoblash va ESG hisobotlarni shaffof shaklda tayyorlash jarayonlarini standartlashtirishga xizmat qiladi.

Hozirgi vaqtda jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan quyidagi standart va metodologiyalar O'zbekiston sharoitida joriy etish uchun muhim asos hisoblanadi:

GRI 305 (Emissions): Global Reporting Initiative standartlari ichida GHG emissiyalarini hisoblash, Scope 1, 2 va 3 toifalari bo'yicha tasniflash va ochiq hisobot berishni nazarda tutadi. Ushbu standart kompaniya faoliyatidan kelib chiqadigan to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita chiqindilarni aniq hisoblash usullarini belgilaydi.

IFRS S2 (Climate-related Disclosures): 2023 yilda ISSB tomonidan qabul qilingan ushbu standart iqlim bilan bog'liq moliyaviy xatarlar va imkoniyatlarni korporativ hisobotlarga integratsiya qilishni talab qiladi. Bu standart biznesning iqlim o'zgarishiga ta'sirini moliyaviy miqyosda baholashga yordam beradi.

IPCC metodologiyasi: Hukumatlararo iqlim o'zgarishi bo'yicha ekspertlar guruhi (IPCC) tomonidan ishlab chiqilgan metodologik ko'rsatmalar asosida GHG emissiyalari sohalar va manbalar kesimida aniq hisoblanadi. Ushbu yondashuv EDGAR ma'lumot bazasi bilan uyg'unlashtirilgan bo'lib, xalqaro hisobotlar bilan mos kelish imkonini beradi.

O'zbekistonda ushbu standartlarni joriy etish uchun muayyan imkoniyatlar mavjud. Birinchidan, energetika, sanoat, qishloq xo'jaligi va transport sohalaridagi emissiyalar bo'yicha ma'lumotlar mavjud bo'lib, ularni xalqaro metodologiyalar asosida qayta ishlash imkoniyati bor. Ikkinchidan, yirik korxonalar (masalan, NKMK, Navoiyazot) allaqachon barqaror rivojlanish hisobotlarini tayyorlashni boshlagan, bu esa pilot loyihalar uchun asos yaratadi.

Shu bilan birga, milliy ESG indikatorlarini shakllantirish masalasi ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Hozircha O'zbekistonda ESG ko'rsatkichlarining yagona reestri yoki normativ tasnifi mavjud emas. Xalqaro amaliyotdan kelib chiqqan holda, quyidagi yo'nalishlarda milliy indikatorlar ishlab chiqilishi mumkin:

E (atrof-muhit): uglerod chiqindilar hajmi, energiya samaradorligi, suv va resurs sarfi, chiqindilarni qayta ishlash darajasi;

S (ijtimoiy): xodimlar sog'ligi va xavfsizligi, gender tenglik, mahalliy jamiyat bilan hamkorlik;

G (boshqaruv): kompaniyaning shaffofligi, tashqi audit mavjudligi, etik kodexlar va boshqaruv tuzilmasi.

Ushbu indikatorlar asosida ESG hisobotlarning milliy shablonlari yaratilib, buxgalteriya va korporativ hisobot tizimi bilan integratsiya qilish mumkin bo'ladi.

Bu nafaqat xalqaro investitsiya muhitini yaxshilaydi, balki milliy biznesda barqarorlik tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi.



Jahon amaliyotida buxgalteriya hisobining faqat moliyaviy ko'rsatkichlarni emas, balki atrof-muhit va ijtimoiy mas'uliyat bilan bog'liq ma'lumotlarni ham o'z ichiga oladigan kengaytirilgan shakli — integratsiyalashgan hisobot (integrated reporting) konsepsiyasi tobora keng qo'llanilmoqda.

Bu jarayonning markazida uglerod chiqindilarini hisobga olish va ularni moliyaviy hisobotlar bilan uyg'unlashtirish turibdi. Quyida keltirilgan 1-jadvalda xalqaro standartlar asosida buning amalga oshirish mexanizmlari va O'zbekiston sharoitida joriy etish imkoniyatlari tahlil qilindi.

1-jadval. Xalqaro standartlar va ularni O'zbekistonda joriy etish imkoniyatlari<sup>3</sup>

Standart nomi	Ahamiyati	Asosiy talablar	O'zbekiston uchun joriy etish imkoni
GRI 305	Uglerod chiqindilarini hisoblash va hisobot berish	Scope 1, 2, 3 bo'yicha chiqindilarni klassifikatsiya qilish, emissiyalarni aniqlash	Energetika va sanoat sohasidagi ma'lumotlar bazasi mavjud, Excel/1C orqali joriy etish mumkin
IFRS S2	Iqlimga bog'liq xatarlarni moliyaviy hisobotda integratsiya qilish	GHG emissiyalar, xatarlar, strategik tavakkalchilikni baholash	ESG hisobotlar shaklini moliyaviy hisob bilan birlashtirish, normativ qo'llanma talab etiladi
IPCC metodologiyasi	Ilmiy asosda emissiyalar hisoblash	Manba va tadqiqotlar formula, koeffitsientlar, emissiyalar	EDGAR ma'lumotlari va milliy manbalar bilan bog'lantirish imkoni bor
ISSB (IFRS S1/S2)	Barqarorlik xatarlarini hisobotda to'liq integratsiya qilish	ESG ma'lumotlarini moliyaviy hisobot bilan uyg'unlashtirish	Milliy ESG indikatorlarini ishlab chiqish va IT tizimlarni rivojlantirish zarur

Uglerod chiqindilarini buxgalteriya hisoboti ga integratsiya qilishda korxonalar moliyaviy ma'lumotlar bilan ekologik ko'rsatkichlarni uyg'unlashtirishi talab etiladi. Bunda hisob-kitob mexanizmlari va hisobot shakllari turli yondashuvlar asosida amalga oshiriladi. Quyidagi 2-jadvalda integratsiyaning asosiy usullari, ularning tavsifi va ahamiyati keltirilgan.

2-jadval. Uglerod chiqindilarini buxgalteriya hisobotiga integratsiya qilish mexanizmlari<sup>4</sup>

Integratsiya yo'li	Tavsif	Ahamiyati
Ishlab chiqarish xarajatlari tarkibida	Elektr energiyasi, yoqilg'i, xomashyo sarfi emissiya koeffitsiyentlari asosida hisoblanadi	Chiqindilarni ishlab chiqarish xarajati bilan bog'lab hisoblash
Moliyaviy bo'lmagan aktiv/rezervlar sifatida	Emissiyalarni kamaytirishga yo'naltirilgan investitsiyalar va xarajatlar	Uglerod bilan bog'liq xatarlar va faoliyatlarini moliyaviy bayon etish
Ekologik xarajatlar bo'limida	Chiqindilarni qayta ishlash, energiya samaradorligi, karbon kreditlar xaridi	ESG xarajatlarini hisobotda aniq aks ettirish va shaffoflikni ta'minlash

O'zbekistonda xalqaro hisobot standartlarini joriy etishni samarali tashkil etish uchun metodologik, infratuzilma va institutsional qadamlar zarur. Quyida keltirilgan 3-jadvalda ushbu yo'nalishda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan amaliy tavsiyalar, ularning mohiyati va amalga oshirish yo'nalishlari tizimlashtirilgan.

3-jadval. O'zbekistonda xalqaro standartlarni joriy etish bo'yicha amaliy tavsiyalar<sup>5</sup>

Yo'nalish	Tavsiya	Aniqlashtirish
<b>GRI 305 va IFRS S2 lokallashtirish</b>	Tarjima, solallashtirilgan yo'riqnoma va namunaviy hisobotlar ishlab chiqish	Mahalliy korxonalar uchun tushunarli va amalda qo'llaniladigan shakl
<b>Milliy ESG indikatorlari</b>	CO <sub>2</sub> /mahsulot, chiqindilar ulushi, gender tengligi kabi ko'rsatkichlarni ishlab chiqish	Milliy hisobot standartlariga mos indikatorlar reestrini yaratish
<b>1C, Excel, ERP shablonlari</b>	Emission factor (emissiya koeffitsiyenti) bazasi asosida avtomatlashtirilgan hisob-kitob formulalari	Buxgalteriyada uglerod hisobini avtomatlashtirish imkoniyatlarini yaratish

3 GHG Protocol va amaliyot tahlili asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

4 GRI, IFRS va mahalliy amaliyotlar tahlili asosida muallif tomonidan tuzilgan

5 GRI 305, IFRS S2 va milliy hujjatlar tahlili asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan



<b>ESG hisobot uchun yo'riqnoma</b>	Moliya vazirligi yoki Ekologiya qo'mitasi tomonidan rasmiy metodik hujjat ishlab chiqish	Davlat tomonidan rasmiylashtirilgan va majburiy hisobda yuritilishi lozim bo'lgan shakl
<b>Pilot korxonalarini jalb qilish</b>	Navoiy KMK, Navoiyazot kabi korxonalar hisobotlarini pilot sifatida sinovdan o'tkazish	Yaponiyadagi ilg'or tajriba asosida test joriy etish va keyinchalik ommalashtirish

Xulosa qilib aytganda, xalqaro standartlar asosida uglerod chiqindilarini buxgalteriya hisobida aks ettirish va ESG hisobotlarni joriy etish O'zbekistonda barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim strategik vosita bo'lib, bu jarayonni samarali amalga oshirish uchun normativ baza, mutaxassislar salohiyati va axborot tizimlari integratsiyasi bo'yicha izchil islohotlar talab etiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda global iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va "yashil" iqtisodiyotga o'tish bo'yicha qator strategiyalar qabul qilingan bo'lsa-da, hali-gacha buxgalteriya hisobi va korporativ hisobotlar tizimida uglerod chiqindilarini hisobga olish va ESG standartlarini to'liq joriy etish amaliyoti shakllanmagan. Uglerod emissiyalarini aniq hisobga olish, ularni moliyaviy hisobotlarda aks ettirish va ekologik, ijtimoiy hamda boshqaruv ko'rsatkichlarini qamrab olgan hisobotlarni tayyorlash bugungi kunning dolzarb talablaridan biridir.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, xalqaro standartlar — GRI 305, IFRS S1/S2, ISSB va IPCC metodologiyalari asosida emissiyalarni hisoblash va hisobot berish tizimini joriy etish uchun O'zbekistonda muayyan sharoit va imkoniyatlar mavjud. Jumladan, 1C va Excel dasturiy vositalari orqali chiqindilarni hisoblashga texnik baza shakllangan, Navoi kon metallurgiya kombinati, Navoiyazot AJ larda ESG hisobotlarini tayyorlash amaliyoti boshlangan hamda hukumat tomonidan "Yashil iqtisodiyot" strategiyasi orqali zarur normativ hujjatlar ishlab chiqilmoqda.

Biroq, ushbu jarayonni tizimli tashkil etish va keng qo'llash uchun quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish mumkin:

Hisobot shakllarini standartlashtirish: ESG hisobotlari uchun umumiy namunalar va yo'riqnomalar ishlab chiqish, ularni milliy hisobot standartlari bilan uyg'unlashtirish.

Moliyaviy vazirligi yoki Ekologiya qo'mitasi tashabbusida ESG bo'yicha metodik hujjatlar yaratish: ESG indikatorlari, emissiyalarni hisoblash usullari, xatarlarni baholash mexanizmlari va hisobot formalari to'g'risidagi rasmiy qo'llanmalarni ishlab chiqish.

Mutaxassislar tayyorlash va malaka oshirish kurslarini tashkil etish: Yashil hisobot va GHG emissiyalar bo'yicha buxgalter va auditorlar uchun maqsadli ta'lim dasturlarini joriy etish.

Xususi sektor uchun ESG grant dasturlari va rag'batlantirish mexanizmlarini yaratish: ESG hisobotlarini joriy etgan korxonalar uchun soliq imtiyozlari, kredit preferensiyalari yoki xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda grant dasturlarini tashkil etish.

Milliy ESG indikatorlarini shakllantirish va raqamlashtirish: CO<sub>2</sub> emissiyalari, energiya iste'moli, ekologik xarajatlar, ijtimoiy tenglik va boshqaruv sifatini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar bazasini ishlab chiqish va ularni hisobotlarda majburiy tarzda qo'llash.

Pilot loyihalarni amalga oshirish: Yirik korxonalar asosida pilot tarzda xalqaro standartlar asosida ESG hisobot tizimini joriy etish va uning natijalari asosida milliy modelni shakllantirish.

Mazkur takliflar amalga oshirilsa, buxgalteriya hisoboti faqat moliyaviy natijalarni emas, balki korxonaning atrof-muhit va jamiyat oldidagi mas'uliyatini ham qamrab oladigan zamonaviy va barqaror korporativ hisobot tizimiga aylanishi mumkin.

Bu esa O'zbekistonni xalqaro ekologik reytinglar va sarmoyaviy muhitda raqobatbardosh qilishda muhim omil bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2019, October 4). Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PQ-4477-sonli qaror. <https://lex.uz/uz/docs/4539502>
- Al-Dhaimesh, H. M. (2020). The impact of green accounting for sustainable development on the financial performance of companies. *International Journal of Business and Management Invention*, 9(5), 17–24.
- Annqita, R., Siregar, M., & Sudrajat, S. (2022). The effect of green accounting implementation on firm value. *Journal of Accounting and Environmental Sustainability*, 14(1), 55–62.
- Anggraeni, D. Y. (2015). Pengungkapan emisi gas rumah kaca, kinerja lingkungan, dan nilai perusahaan. *Jurnal Akuntansi dan Keuangan Indonesia*, 12(2), 188–209. <https://doi.org/10.21002/jaki.2015.11>
- Bahriansyah, R. I., & Ginting, Y. L. (2022). Pengungkapan emisi karbon terhadap nilai perusahaan dengan media exposure sebagai variabel moderasi. *JRAP (Jurnal Riset Akuntansi dan Perpajakan)*, 9(2). <https://doi.org/10.35838/jrap.2022.009.02.21>



6. Chasbiandani, M., & Rahardjo, T. (2019). Green accounting and its role in improving firm's environmental performance. *Asian Journal of Accounting Research*, 4(2), 101–110.
7. Deswanto, V. (2022). Literature review: Green accounting era 4.0 menuju society 5.0. *Jurnal Riset Akuntansi dan Manajemen Malahayati*, 11(2), 42–48. <https://doi.org/10.33024/jrm.v11i2.7213>
8. EDGAR. (2023). Emissions database for global atmospheric research v8.0. <https://edgar.jrc.ec.europa.eu>
9. European Commission. (2024). EDGAR Report 2024: CO<sub>2</sub> emissions and GDP. [https://edgar.jrc.ec.europa.eu/report\\_2024?vis=co2gdp#emissions\\_table](https://edgar.jrc.ec.europa.eu/report_2024?vis=co2gdp#emissions_table)
10. Endiana, I. D. M., et al. (2020). The effect of green accounting on corporate sustainability and financial performance. *Journal of Asian Finance, Economics and Business*, 7(12), 731–738. <https://doi.org/10.13106/jafeb.2020.vol7.no12.731>
11. GRI. (2016). GRI 305: Emissions 2016. Global Reporting Initiative. <https://www.globalreporting.org>
12. IFRS Foundation. (2023). IFRS S1 and IFRS S2 Standards. <https://www.ifrs.org>
13. IPCC. (2019). 2019 refinement to the 2006 IPCC guidelines for national greenhouse gas inventories. <https://www.ipcc.ch>
14. IPCC. (2021). Summary for policymakers – AR6 WGI. [https://www.ipcc.ch/report/ar6/wg1/downloads/outreach/IPCC\\_AR6\\_WGI\\_SummaryForAll.pdf?utm\\_source](https://www.ipcc.ch/report/ar6/wg1/downloads/outreach/IPCC_AR6_WGI_SummaryForAll.pdf?utm_source)
15. Iskandar, D., & Fran, E. (2016). The effect of carbon emissions disclosure and corporate social responsibility on the firm value with environmental performance as variable control. *Research Journal of Finance and Accounting*, 7(9), 122–130.
16. Janssens-Maenhout, G., Crippa, M., Guizzardi, D., Muntean, M., Schaaf, E., Dentener, F., Bergamaschi, P., ... Oreggioni, G. D. (2019). EDGAR v4.3.2 Global Atlas of the three major greenhouse gas emissions for the period 1970–2012. *Earth System Science Data*, 11, 959–1002. <https://doi.org/10.5194/essd-11-959-2019>
17. Luciana, M., Sudrajat, A., & Rachmawati, D. (2021). The impact of green accounting application on firm value. *EcoStudies Journal*, 10(1), 45–53.
18. Maama, H., Ginting, Y., & Wibowo, A. (2019). The effect of green accounting on company value: Evidence from Indonesia. *Proceedings of the International Conference on Economics, Education, Business and Accounting (ICEEBA)*, 2019(1), 215–222.
19. UNEP. (2023). Emissions gap report 2023. United Nations Environment Programme. <https://www.unep.org>
20. United Nations Environment Programme. (2023). Emissions gap report 2023: Broken record – Temperatures hit new highs, yet world fails to cut emissions (again). Nairobi: UNEP. <https://www.unep.org/resources/emissions-gap-report-2023>
21. Xalilov, Sh. A. (2025). Yashil buxgalteriya hisobi: Buxgalteriya hisobida uglerod chiqindilarini hisobga olishning nazariy yondashuvlari. *Muxandislik va Iqtisodiyot Jurnal*, (4), 781.
22. Zulhaimi, H. (2015). Pengaruh penerapan green accounting terhadap kinerja perusahaan (studi pada perusahaan peraih penghargaan industri hijau yang listing di BEI). *Jurnal Riset Akuntansi dan Keuangan*, 3(1), 603–616.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---